

AXBOROT ERKINLIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Komilov Asadbek Maxsudbek o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

E-mail: sozananews@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada axborot erkinligi tushunchasi, uning demokratik jamiyatdagi o'rni hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Axborot olish, tarqatish va undan foydalanish huquqlari, shuningdek, bu huquqlarning cheklanishi mumkin bo'lgan holatlari konstitutsiyaviy tamoyillar nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, axborot erkinligini ta'minlashdagi dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham muhokama qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – axborot erkinligi sohasidagi konstitutsiyaviy kafolatlarni chuqur o'rganish va ularning amaliyotdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: axborot erkinligi, konstitutsiyaviy huquqlar, O'zbekiston Konstitutsiyasi, so'z erkinligi, axborotga ega bo'lish huquqi, demokratik tamoyillar, huquqiy kafolatlar, fuqarolik jamiyati, axborot xavfsizligi, qonunchilik asoslari.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СВОБОДЫ ИНФОРМАЦИИ

Комилов Асадбек Махсудбек угли

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: sozananews@gmail.com

Аннотация: в данной статье анализируются понятие свободы информации, её роль в демократическом обществе, а также правовые основы, закрепленные в Конституции Республики Узбекистан и других нормативно-правовых актах. Рассматриваются права на получение,

распространение и использование информации, а также случаи, в которых эти права могут быть ограничены с точки зрения конституционных принципов. В статье также обсуждаются актуальные проблемы обеспечения свободы информации и пути их решения. Основная цель исследования – глубокое изучение конституционных гарантий в сфере свободы информации и раскрытие их значимости на практике.

Ключевые слова: *свобода информации, конституционные права, Конституция Узбекистана, свобода слова, право на доступ к информации, демократические принципы, правовые гарантии, гражданское общество, информационная безопасность, законодательные основы.*

CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF FREEDOM OF INFORMATION

Komilov Asadbek Maxsudbek o'g'li

Master's student at Tashkent State University of Law

E-mail: sozananews@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the concept of freedom of information, its role in a democratic society and the legal foundations established in the Constitution of the Republic of Uzbekistan and other normative legal documents. The rights to receive, distribute and use information as well as the cases in which these rights may be restricted are examined from the perspective of constitutional principles. The article also discusses current issues in ensuring freedom of information and explores ways to address these challenges. The main objective of the study is to thoroughly examine the constitutional guarantees in the field of freedom of information and to highlight their practical significance.*

Keywords: *freedom of information, constitutional rights, Constitution of Uzbekistan, freedom of speech, right to access information, democratic principles, legal guarantees, civil society, information security, legislative foundations.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Axborot butun jamiyat uchun hayotiy zaruratdir. Kishilar o‘zaro kundalik muloqotda axborot almashadilar. Ma’lum muddatda o‘zlari ko‘rmagan, shohidi bo‘lmagan voqelikdan xabardor bo‘ladilar. Xuddi shuningdek o‘zlari ko‘rgan, guvohi bo‘lgan voqea-hodisalar haqida axborot beradilar. Bu axborotning eng sodda ko‘rinishidir. Jamiyatga taalluqli bo‘lgan axborotlar unda yashovchi fuqarolar, turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, ijtimoiy institutlarning qiziqishlari va manfaatlariga tegishli bo‘ladi. Axborot almashishi, aylanishi tufayli jamiyat harakatlanadi. Demak, turli sohalarni rivojlanishiga turtki bo‘ladigan asos axborotdir. Oddiy qilib aytganda muayyan sohalarga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarga qarab shu sohaning istiqbolini belgilash uchun rejalar ishlab chiqiladi. Rejalar asosida vazifalar taqsimlanadi va harakatga keltiriladi. Natijada rivojlanish paydo bo‘ladi. Kuniga yuzlab, minglab axborotlar odamning oddiy turmushidan tortib, korxona va tashkilotlar, boshqaruv tizimigacha kirib boradi. Agar shunday axborotlarning butun hajmini tasavvur qiladigan bo‘lsak, juda murakkab formulali axborot almashish jarayoni yuzaga keladi. Eng qizig‘i, shunday katta axborot oqimidan, axborot almashish jarayonlaridan har kim faqat o‘ziga kerakli axborotni ajratib oladi. Shu bois jamiyatni axborotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Axborotni jamiyatga, odamlarga kim yetkazib beradi? Bu savolga avvalo, jamiyatning o‘zi, deb javob berish to‘g‘riroq, bizningcha. Chunki jamiyat mavjud ekan, uning mazmunini o‘zaro aloqa (kommunikatsiya), o‘zaro munosabatlar tashkil qiladi. Ana shu jarayonlarda axborot almashinadi. Ammo bunday axborotlar stixiyali xarakterga ega bo‘lib unda aloqaga kirishgan tomonlargina manfaatdor bo‘ladi. Hammaga taalluqli bo‘lgan axborotni esa u bilan

maxsus shug‘ullanuvchi kishilar – jurnalistlar tayyorlaydi va ommaviy axborot vositalari orqali ommaga, auditoriyaga yetkazib beradi.

To‘g‘ri, hozirgi davrda axborot uzatish vositalari juda ko‘paygan. Bu texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq jarayon. Ammo shu axborot uzatuvchi vositalar ham o‘z auditoriyasi, o‘z mijozlariga tegishli bo‘lgan axborotni yetkazadi. OAV esa umumjamiyat, umumjamo‘a ya‘ni jamiyatning barcha fuqarolarini axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi.

Ommaviy axborot vositalari jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, dedik. Ammo axborotning o‘zi qayerdan olinadi? Turli sohalarga oid axborotlarni hamma ham jurnalistga osonlikcha beraveradimi? Jurnalstning axborot oluvchi asosiy manbasi nima?

Axborotni olish bilan bog‘liq masalalarda bu kabi savollarning bo‘lishi tabiiy, albatta. Bizni o‘rab turgan olamda, biz yashayotgan jamiyatda qabul qiladigan axborotlarning turlari ko‘p va xilma-xildir.

Axborot olish huquqi insonning faqat fuqaroviy huquqigina emas, balki daxlsiz huquqi hamdir. Jamiyatda biz qabul qiladigan axborotlar xilma-xildir: ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy, ilmiy, tarbiyaviy va boshqalar. Bunday axborotlarga bugungi kunda ma‘naviy qurol, ta‘sir vositasi va manfaatlarga xizmat qiluvchi resurs sifatida qaralmoqda. Shu sabab jurnalistika xavfli kasblar qatorida turadi. Tashqi aralashuvlar, jurnalist erkinligining cheklanishi, shuningdek, soha xodimlarining huquq va majburiyatlarini yetarlicha bilmasligi muammoli holatlarni yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, axborot manbalari bilan ishlash va axborot olish erkinligi borasidagi milliy qonunchilikdagi huquqiy asoslarni o‘rganish, ular jurnalist huquq va majburiyatlarini qanday belgilab berganini tahlil

qilish zaruratga aylangan. Bu esa OAVga oid me'yorlarni chuqur ilmiy-amaliy tahlil qilishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Axborot olish va tarqatish huquqi nafaqat jurnalist, balki har bir insonning ajralmas huquqlaridan biridir. Sababi, u inson tug'ilganidayoq subyektiv huquq sifatida shakllanadi. Biroq professional faoliyatni tashkil qilish maqsadida sohaga oid qonunlarga ehtiyoj katta. Ularda "axborot olish huquqi" bilan birgalikda "so'z erkinligi", "matbuot erkinligi" kabi tushunchalar ham aks etadi. Garchi bu uch tushunchaning mazmuni bir-biriga yaqin bo'lsa ham, nazariyada qarama-qarshi yondashuvlar, bir-birini to'ldiruvchi qarashlar yuzaga kelgan.

Xususan, rossiyalik olimlar Y.Dmitriyev va A.Zlatopolskiy axborotga bo'lgan huquq so'z va matbuot erkinligi bilan chambarchas bog'liqligini keltirsalar¹, A.Malko bu tushuncha yuqoridagi ikkitasidan ko'ra boyroq hamda mazmunliroq ekanini ta'kidlaydi². Yuridik fanlari olimi Xayrullo Mamatov so'z va matbuot erkinligini amalga oshirishda davlat aralashuvining inkor etilishini, axborotga bo'lgan huquqda esa uning faol ishtiroki zarurligini qayd etadi³. Zero, axborotdan foydalanish huquqi so'z va matbuot erkinligi bilan uzviy aloqador. Sababi, hukumat qonun chiqargach, unda nazorat funksiyasini bajarish majburiyati ham yuzaga keladi. Bu esa senzurani bartaraf etishda ham uning ishtiroki muhimligini anglatadi. Davlatning tartibga solish va nazorat funksiyasi amalga oshishi uchun avvalo, me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lishi kerak. Yuridik fanlari olimi Ikrom Xojanazarovning yondashuviga ko'ra "qonunchilik" tushunchasi ikki xil ma'noda: 1) davlat hokimiyatining qonun ishlab chiqarish funksiyasini yuzaga kelishi; 2) keng ma'noda mamlakatdagi barcha normativ-huquqiy aktlar

¹ Mamatov X.T. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, y.f.n. ilmiy darajasini olish uchun diss. - Toshkent: 2009 -B.25

² O'sha manba. -B.26

³ O'sha manba -B.28

jamlanmasi, tor ma'noda esa faqatgina amaldagi qonunlar yig'indisi sifatida tushuniladi⁴. Shu sabab OAVga tegishli huquqiy hujjatlar jamlanmasini ham sohaga oid qonunchilik deb atash to'g'ri bo'ladi. Tadqiqotchi Sangin Jabborov jurnalistikaga oid qonunchilik XVII-XIX asrlarda, ya'ni uning matbuot sifatida shakllanish davrida shiddat bilan rivojlanganini keltiradi⁵. Olim jurnalistikaning ijtimoiy institut sifatida taraqqiy etishida qonunchilik zaruriy hodisa bo'lganini ta'kidlaydi⁶. Shu ma'noda N.Toshpo'latova va F.Saidov A.G.Rixterning tadqiqotlariga tayangan holda axborot olish huquqi XX asrning o'rtalariga kelib qat'iy talab sifatida o'rtaga chiqqanini tasdiqlaydilar⁷. Qonunlarda ko'zda tutilmagan ijtimoiy jarayonlar kasb kodekslari, shuningdek, xalqaro shartnomalarda ham aks etib, yaxlit me'yoriy aktlar jamlanmasi yuzaga keldi. Fuqarolarning axborot olish va tarqatish huquqi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"⁸, "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"⁹gi xalqaro pakt, "Adabiy va badiiy asarlar to'g'risida"gi Bern konvensiyasi¹⁰ kabi xalqaro huquqiy me'yorlarda aks etgan. Deklaratsiyaning 19-moddasida chegaraviy cheklovlarsiz axborotni izlash, olish va uzatish erkinligi keltirilgan. Xalqaro paktning xuddi shu moddasida ham ushbu holat mustahkamlangan. O'zbekistonda internet tarmog'iga cheklov qo'yilmagani, turli tillarda xabar tayyorlovchi xorij OAVning mavjudligi ushbu xalqaro me'yor amalda ishlayotganini anglatadi. Biroq ikkinchi bandida

⁴ Xojanazarov I.E. Liberallashtirish - O'zbekistondagi huquqiy islohotlarning markaziy yo'nalishi (nazariya va amaliyot masalalari). y.f.n. ilmiy darajasini olish uchun diss. - Toshkent: 2009. - B.109

⁵ Jabborov S.M. Jurnalistikaning samarali faoliyat yuritishiga xalqaro va milliy huquqning ta'siri (AQSh, GFR va Buyuk Britaniya OAV misolida 1960-2000 yillar). f.f.n. ilmiy darajasini olish uchun diss. - Toshkent: 2002. - B.16

⁶ O'sha manba., - B.26.

⁷ Do'stmuhammad X., Toshpo'latova N. Jurnalistika huquqi va etikasi. J.2: OAV qonunchiligi, qonunlarga sharhlar, kasb etikasi. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. B.19.

⁸ The Universal Declaration of Human Rights, General Assembly resolution 217 A, 1948.

⁹ International Covenant on Civil and Political Rights, General Assembly resolution 2200A (XXI), 1966.

¹⁰ Бернская конвенция об охране литературных и художественных произведений, Стокгольм, 1967.

davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi salomatligini muhofaza etish maqsadida axborotdan foydalanish cheklanishi mumkinligi bayon etiladi¹¹.

Bosh qomusimizning 33-moddasida axborot olish huquqi mavjud davlat siyosatiga qarshi qaratilsa, davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lganda cheklanishi mustahkamlangan¹². Demak, istalgan davlatda fuqarolarning axborot olishi faqat qonunga muvofiq cheklanishi mumkin. Bunda kishilarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini ta'minlash, jamiyatning axloqiy qadriyatlari va davlatning ilmiy salohiyatini muhofaza qilish maqsadidagina axborot berishdan bosh tortish mumkin. Davlat fuqarolar, xususan, jurnalistlarning axborotni izlashi, olishi va bu bilan bog'liq boshqa xatti-harakatlarini amalga oshirish huquqini himoya qiladi. Bunda ularning jamiyatdagi mavqeyi, ijtimoiy kelib chiqishi, shuningdek, jinsi, irqi, millati, tili, dini va e'tiqodiga qarab axborot olish huquqining cheklanishi man etiladi. Amaliyotda jurnalistlarning axborotni maxfiy tarzda olishi, ayniqsa, shaxsga doir ma'lumotlar, jumladan, foto va video tasvirlarni manbaning ruxsatisiz tarqatib yuborishi doimo bahstalar mavzu bo'lib kelgan. Shu sabab Deklaratsiyaning¹³ 12-moddasi va xalqaro Paktning¹⁴ 17-moddasi va Konstitutsiyaning¹⁵ 31-moddasi ikkinchi bandida o'zga kishilarning yozishmalaridan faqat ularning ruxsati bilan foydalanish mumkinligi mustahkamlangan. OAV anonim manbalarning huquqlarini himoya qilgan holda ularning ovozini o'zgartirib, foto va videotasvirlariga xira tasvir tortib e'lon qilishi mumkin. Sud jarayonlarini yoritishga oid huquqiy bilimning yetishmasligi, nomutaxassis kadrlarning

¹¹ The Universal Declaration of Human Rights, General Assembly resolution 217 A, 1948.

¹² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023 y.

¹³ The Universal Declaration of Human Rights, General Assembly resolution 217 A, 1948.

¹⁴ International Covenant on Civil and Political Rights, General Assembly resolution 2200A (XXI), 1966.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023 y.

ko'payishi, "faktchekking"ga jiddiy e'tibor qaratmaslik oqibatida ham qonun va etika qoidalari bot-bot buziladi. Xususan, aybi sud hukmi bilan tasdiqlanmagan insonni jinoyatchi deb e'lon qilish, voqeani noto'g'ri talqin qilish holatlari amaliyotda ko'p uchraydi. Zero, Deklaratsiyaning 11-modda birinchi bandi¹⁶ va xalqaro Paktning 14-modda ikkinchi bandi¹⁷, Konstitutsiyamizning 28-modda birinchi bandida¹⁸ "aybsizlik prezumpsiyasi" o'z ifodasini topgan. Agar bu jarayonga shaxsni matbuot orqali obro'sizlantirish sifatida qaralsa, bunday xabar tarqatgan fuqaro, jumladan, jurnalistga nisbatan javobgarlik belgilangan.

Afsuski, axborot makonining tobora kengayib borayotgani, e'lon qilinayotgan materiallarning mazmuniga esa jamiyat a'zolarining befarqligi uchun ayrim jurnalistlarning faoliyati nazoratsiz qolmoqda. Mass-media katta kuchga aylangani sabab mamlakatimizning bosh qomusida alohida bir bob, aniqrog'i yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning XV bobi "Ommaviy axborot vositalari" deb nomlangan¹⁹. Bob tarkibidagi ikkita modda esa jurnalistning birlamchi huquq va majburiyatlarini to'laligicha aks ettirgan. X.Mamatovning ta'kidlashicha, bir nechta suveren huquqlarning bitta modda doirasida mustahkamlanishi ularning o'zaro bog'liqligidan dalolat beradi.²⁰ Xususan, OAVning erkin faoliyat yuritishi va senzura yo'l qo'yilmasligi axborot olish va tarqatishda sohaning mustaqilligini, uning qonunga muvofiq ishlashi buyruqbozlik va tahdidlardan xoli ekanini anglatadi. Axborotning to'g'riligiga nisbatan javobgarlik masalasi jurnalistga axborot manbalarini izlashda ochiq axborot manbalariga murojaat etish huquqini bersa, yolg'on ma'lumot tarqatganlik uchun javobgarlikni ham yuklaydi.

¹⁶ The Universal Declaration of Human Rights, General Assembly resolution 217 A, 1948.

¹⁷ International Covenant on Civil and Political Rights, General Assembly resolution 2200A (XXI), 1966.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023 y.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023 y.

²⁰ Mamatov X. T. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, y.f.n. ilmiy darajasini olish uchun diss. - Toshkent: 2009 -B.26

Mazkur modda zamirida “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”²¹gi, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”²²gi, “Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to‘g‘risida”²³gi, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”²⁴gi qonunlar ishlab chiqildi. Fuqarolar, shu jumladan, jurnalistlarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi Konstitutsiyaning 34-moddasida mustahkamlangan²⁵. Bu modda “Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to‘g‘risida”gi qonunlarning ishlab chiqilishiga ham asos bo‘ldi.

Ochiq axborot manbalaridan foydalanishda jurnalist huquqining buzilishi bo‘yicha “Rost24” sayti sobiq muxbiri Anora Sodiqova shunday deydi: “Toshkent shahar hokimligini olaylik, Toshkent shahar hokimiyatining Telegram-kanalida ma’lumotlar ko‘p. Lekin biz qaysidir masalalar “snos”, byudjet mablag‘larining sarflanishi bo‘yicha savol bilan murojaat qilsak, hech qachon javob ololmaymiz. Bu ularning OAVga ochiq emasligidan dalolat. Ma’lumotlar ko‘p, ammo biz uchun muhim bo‘lganlari yo‘q. Shubhali holatlar yuzasidan savollar berganimizda, ular yopiq pozitsiyada qolishadi”²⁶. Ochiq axborot manbalari bilan ishlashda yuzaga kelayotgan nizoli holatlar bo‘yicha amaliyotchi jurnalistlarda juda ko‘p e’tirozlar mavjud. Misol uchun, “Markaziy studiya” informatsion dasturining

²¹ O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2007.

²² O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 1997.

²³ “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi qonun // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 1997.

²⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2002.

²⁵ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2023

²⁶ Qarang: <https://qalampir.uz/news/-2105-60584>

jurnalisti Yulduz Olimova quyidagicha yozadi: “Men ilgari radioda ham faoliyat yuritganman. O’sha davrlarda menga har hafta statistik ma’lumotlar taqdim etilardi. Masalan, nechta yo‘l-transport hodisasi yuz bergani, ularning sabab-natijalari, qanchasi mast holatda boshqarilgan transport vositalari bilan bog‘liq ekani, nechta holat esa tezlikni me’yordan oshirish oqibatida sodir bo‘lgani haqida axborot berilardi. Yaqinda mutasaddi tashkilotga “Menga shu yil yoki so‘nggi ikki oyga oid statistik ma’lumotlar kerak”, deb bir necha marotaba murojaat qilganman. Ular statistik ma’lumotni hech bo‘lmaganda oyma-oy berishmayapti”²⁷. Achinarlisi, bunday tashkilotlarning mas’ullariga hech qanday huquqiy chora ko‘rilmayapti. Jurnalist Lola Islamova ham Markaziy bank jurnalistga javobni kech berishi sabab tashkilot ustidan prokuraturaga shikoyat qilganini yozadi.²⁸ Soha faoliyati to‘g‘risida alohida kodeks ishlab chiqilmagan bo‘lsa ham, mavjud kodekslardagi ayrim moddalar uni tartibga solish, xususan, axborotni erkin olish va tarqatish uchun xizmat qiladi. Misol uchun, Fuqarolik kodeksining 99-, 100-moddasida²⁹ shaxsning xususiy va oilaviy siri, uning sha’ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro’sini himoya qilish to‘g‘risida so‘z boradi. Unga ko‘ra, jurnalist fuqaro, shu jumladan yuridik shaxsning yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarini tarqatgani uchun o’sha axborot e’lon qilingan OAVda bepul³⁰ raddiya berishi, fuqaro ham noto‘g‘ri axborot tarqatgan OAV orqali o‘zini himoya qilish huquqiga ega.

Tahririyatga fuqaroning e’tirozi kelib tushgan kundan boshlab 1 oy ichida OAV orqali raddiya berilishi kerak. Raddiya gazetalarda e’tirozga sabab bo‘lgan

²⁷ Qarang: <https://qalampir.uz/news-2105-60584>

²⁸ O’sha manba.

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

³⁰ O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2007.

material e'lon qilingan sahifada, televideniye va radioda esa aynan o'sha dastur yoki turkumda beriladi. Raddiya berish muddati buzilgan va bo'yin tovlangan holatda yuridik va jismoniy shaxs sudga murojaat etishi mumkin³¹. Soha xodimlarining axborot olishida ikkinchi tomonning ham majburiyatlari mavjudligini esdan chiqarmaslik lozim. Afsuski, OAVni toifalab, buyruqbozlik asosida axborot beruvchi tashkilotlar, amaldagi qonunchilikni yaxshi tushunmaydigan va unga amal qilmaydigan mansabdor shaxslar talaygina. Misol uchun, jurnalist Otabek Qo'ldoshev Qashqadaryoga xizmat safari bilan borganda Shahrisabz tumanidagi Xalq ta'limi bo'limi mas'ul rahbari Sh.Ro'ziyev uni bu yerga kelishdan avval boshqarma boshlig'idan ruxsat olib kelish haqida ogohlantiradi. Bu orada tuman hokimi o'rinbosari B.Nazarov jurnalistga "Tumanimizga kelishingizdan avval viloyat hokimligidagi mas'ul rahbarlardan ruxsatnoma olib kelishingiz lozim bo'ladi, shundagina sizga axborot taqdim etilishiga ijozat beramiz" deya axborot berishdan asossiz bosh tortadi³². Bu esa ayrim mahalliy hokimiyat vakillarining huquqiy savodxonligi past ekani, axborot xizmati yaxshi yo'lga qo'yilmaganidan dalolat beradi. Jurnalistning huquqiy faoliyati xolis axborot tarqatishga tayanadi. Chunki u xabar orqali ma'lum voqea-hodisa yoki shaxs haqida omma fikrini shakllantiradi.

Jurnalist axborot manbasining mutlaq ishonchli ekani va uni xolis tarzda o'quvchiga yetkaza olishiga asosiy e'tiborni qaratishi lozim³³. Shu sabab e'lon qilinayotgan axborotning to'g'riligi uchun javobgarlik jurnalistning zimmasiga tushadi. Javobgarlik esa burch, mas'uliyat singari ko'nikmalarni talab etadi³⁴.

³¹ O'sha manba.

³² Qarang: <https://daryo.uz/2018/05/03/jurnalistni-sarson-qilishmoqda-boisi-qonunchilikni-bilmaslikmi-yo-mensimaslik>

³³ Do'stmuhammedov X.N. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil, Toshkent, 2008. - B.40

³⁴ Do'stmuhammad X., Toshpo'latova N. Jurnalistika huquqi va etikasi. J.2: OAV qonunchiligi, qonunlarga sharhlar, kasb etikasi. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. B.19.

Jurnalist o'zi tarqatayotgan xabarning mazmuni uchun mas'ul, biroq OAVda haqiqatga mos kelmaydigan materiallarni tarqatganlik uchun mustasno holatlar ham bor. Xususan, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunning 40-moddasi³⁵ va "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 15-moddasi ikkinchi qismida³⁶ ana shu masalada so'z boradi. Ushbu ma'lumotlar rasmiy xabarlar, normativ-huquqiy hujjatlar yoki rasmiy statistika hisobotlari ma'lumotlaridan olingan bo'lsa; axborot agentliklari yoki davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlarining axborot xizmatlari orqali, shuningdek ularning rasmiy saytlaridan olingan bo'lsa; agar ushbu ma'lumotlar avvaldan yozib olinmasdan efirga beriladigan mualliflik chiqishlarida bor bo'lsa yoki chiqishlarning so'zma-so'z takrorlanishi bo'lsa, tarqatilayotgan axborot mazmuni uchun javobgarlik jurnalistning emas, axborot manbasininig zimmasiga tushadi. Shu o'rinda savol tug'iladi: axborot manbasi yana qanday hollarda javobgar bo'lishi mumkin? Qonunchilikka ko'ra, jurnalist va axborot manbasi intervyuning hammuallifi sanaladi. Axborotni olish va tarqatish nafaqat jurnalistning, balki oddiy fuqarolarning ham ajralmas huquqlaridan biridir. Shu sabab fuqarolar ham o'z qarashlarini rasmiy OAV yoki boshqa vositalar orqali tarqatishi mumkin. Jumalist biror insonning oldiga intervyu olishga borsa, u nafaqat axborotni qo'lga kiritadi, balki respondentining qarashlarini oshkor qilishiga imkon yaratadi. Har ikkisining ham axborotni olish va tarqatishga nisbatan huquqi amalga oshadi. Jurnalistga faktlarni tekshirmasdan OAVda e'lon qilgani, axborot manbasiga esa yolg'on axborot bergani uchun³⁷ javobgarlik belgilanadi. Jabborovning fikricha, inson

³⁵ O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2007.

³⁶ "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonun // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 1997.

³⁷ O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2002.

axborot erkinligini amalga oshirish uchun jahonda kechayotgan jarayonlardan boxabar bo'lishi kerak. U axborot erkinligidan to'laonli foydalanish maqsadida OAVga murojaat qilib, o'z qarashlarini ifodalashi mumkin³⁸. Demak, jurnalist odamlarga murojaat etar ekan ularning huquqlarini hurmat qilishi zarur. Xususan, jurnalist intervyu va suhbat o'tkazish maqsadida turli soha vakillarining qahramonlaridan axborot olishi va uni e'lon qilishi mumkin. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining sobiq deputati X.Do'stmuhammedovning fikricha, intervyu amaliyotda og'zaki yoki diktafonga yozib olinadi. Jurnalist suhbatni qog'ozga tushiradi va matbuotda e'lon qiladi. Tarqatilayotgan axborotga nisbatan javobgarlik respondentga ham yuklanar ekan, soha xodimi bir qator jihatlariga e'tibor qaratishi zarur. Misol uchun, axborot manbasi nutqda aytmoqchi bo'lgan fikrini jurnalistik matnda qanday ifoda topgani bilan tanishishi, faktlarning to'g'riligini yana bir bor ko'zdan kechirishi maqsadga muvofiq³⁹. "Intervyudan foydalanish faqatgina uni bergan shaxsning roziligi asosida amalga oshirilishi mumkin"⁴⁰ degani axborot manbasining matnni tahrirdan so'ng ko'zdan kechirish, ovoz va video tasvirni montajdan so'ng ko'rikdan o'tkazish zarurligini o'zida ifoda etadi. Professor X.Do'stmuhammedovning keltirishicha, jurnalist va axborot manbasi o'rtasidagi o'zaro suhbatda aytilgan yoki og'izdan chiqib ketgan har bir axborotni, ma'lumotni surishtirmay tarqatish jurnalistika sirini oshkor qilish bilan teng⁴¹. Shuningdek, olim olingan axborotni e'lon qilishdan avvalgi yozma, audio va video shaklini axborot manbasiga ham ko'rsatish orqali bir qator nizoli

³⁸ Jabborov S.M. Jurnalistikaning samarali faoliyat yuritishiga xalqaro va milliy huquqning ta'siri (AQSh, GFR va Buyuk Britaniya OAV misolida 1960-2000 yillar). f.f.n, ilmiy darajasini olish uchun diss. - Toshkent: 2002. - B.23

³⁹ Do'stmuhammedov X. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil, - Toshkent, 2008. - B.151.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2006.

⁴¹ Do'stmuhammedov X. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil (Mustaqillik davri o'zbek matbuoti faoliyati misolida. 1991-2008 yillar), - Toshkent, 2008. - B.154

holatlarning oldi olinishini eslatib o'tadi⁴². Mazkur holatda mansabdor shaxslarni istisno qilish maqsadga muvofiq. Chunki mansabdor shaxs jamoat joylarida va jurnalistlar oldida vakolatli shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ularning har bir aytayotgan fikri tashkilotining imijiga bevosita ta'sir o'tkazishini unutmash kerak. Shu sababli mansabdor shaxslarning jamoat joylari va jurnalist oldida aytgan gaplarini uning ruxsatisiz e'lon qilishni qonuniy kafolatlash zarur. Ba'zi jurnalistlar savolni yuborib, javobni yozma tarzda olishga manbani ko'ndirishadi. Bunday hollarda matn tahrirlanishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Garchi bu holat jurnalist tashabbusi bilan amalga oshsa ham, natijasi uchun mas'uliyat ikki tomonga ham taalluqlidir. Shunday vaziyatda axborot manbasiga imtiyoz berish kerakmi? Albatta, yo'q. Amaliyot ko'rsatmoqdaki, bu usulda axborot beruvchi mas'uliyatni yetarlicha his qilmaydi, natijada ma'lumot sifati pasayadi va noto'g'ri axborot tarqalish xavfi ortadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Normativ-huquqiy tahlili orqali Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlarining mazmuni o'rganildi. Tadqiqotda axborot erkinligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari bir butun tizim sifatida ko'rib chiqildi, xalqaro tajriba bilan solishtirildi hamda mavjud huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot erkinligi faqat yuridik-huquqiy masala bo'lib qolmay, balki siyosiy, axloqiy, axborot xavfsizligi va shaxs huquqlari bilan bevosita bog'liq masaladir.

⁴² O'sha manba., - B.155.
SJIF: 5.051

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION)

Axborot erkinligi demokratik jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u har bir fuqaroning o'z fikrini erkin bildirish, axborot izlash, olish va tarqatish huquqini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida bu huquq aniq belgilangan bo'lsa-da, uning amaliyotdagi tatbiqi doimo turli omillarga bog'liq bo'lib kelmoqda. Konstitutsiyada belgilangan axborot erkinligi inson huquqlarining asosiy turlaridan biri sifatida xalqaro huquq normalariga muvofiq tarzda shakllantirilgan. Xususan, bu norma BMTning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" va "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida" gi xalqaro pakt bilan uyg'unlashgan. Shu bilan birga, axborot erkinligi mutlaq cheksiz huquq emas. U turli sabablarga ko'ra – milliy xavfsizlik, jamoat tartibini saqlash, boshqa shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish maqsadida qonun bilan cheklanadi. O'zbekiston qonunchiligida bu cheklovlar "Davlat sirlari to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi va boshqa qator qonunlarda nazarda tutilgan. Ammo ayrim hollarda ushbu cheklovlar keng talqin qilinishi, turli davlat organlarining subyektiv yondashuvi sababli axborot erkinligi amalda to'laonli ta'minlanmayapti.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

So'nggi yillarda O'zbekiston axborot sohasini liberallashtirish yo'lida muhim qadamlar tashladi. Senzuraning bekor qilinishi, OAV faoliyatiga yengilliklar berilishi, jurnalistlar va bloggerlar huquqlarining qonunchilikda e'tirof etilishi shular jumlasidandir. Biroq, raqamli axborot muhitining kengayib borishi bilan yangi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, internetda axborot

tarqatish jarayonida nazorat va filtratsiya masalalari, sun'iy intellekt asosida kontentni avtomatik cheklash, ijtimoiy tarmoqlardagi erkin ifodalar bilan bog'liq mojaro va jazo holatlari axborot erkinligi va axborot xavfsizligi o'rtasidagi nozik muvozanatni taqozo etmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonda axborot erkinligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari mavjud va bu borada ijobiy islohotlar olib borilmoqda. Biroq mavjud qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, ularning ijrosini samarali tashkil etish va bu erkinlikni ta'minlovchi mexanizmlarni mustahkamlash orqali fuqarolarning axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalda to'liq ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2007.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2006.
5. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2002.
6. O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 1997.

7. “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi qonun // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 1997.

8. The Universal Declaration of Human Rights, General Assembly resolution 217 A, 1948.

9. The Universal Declaration of Human Rights, General Assembly resolution 217 A, 1948.

10. Бернская конвенция об охране литературных и художественных произведений, Стокгольм, 1967.

11. Mamatov X.T. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning axborotga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, y.f.n. ilmiy darajasini olish uchun diss. - Toshkent: 2009.

12. Xojanazarov I.E. Liberallashtirish - O‘zbekistondagi huquqiy islohotlarning markaziy yo‘nalishi (nazariya va amaliyot masalalari). y.f.n. ilmiy darajasini olish uchun diss. - Toshkent: 2009.

13. Jabborov S.M. Jurnalistikaning samarali faoliyat yuritishiga xalqaro va milliy huquqning ta’siri (AQSh, GFR va Buyuk Britaniya OAV misolida 1960-2000 yillar). f.f.n, ilmiy darajasini olish uchun diss. - Toshkent: 2002.

14. Do‘stmuhammad X., Toshpo‘latova N. Jurnalistika huquqi va etikasi. J.2: OAV qonunchiligi, qonunlarga sharhlar, kasb etikasi. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019.

15. Do‘stmuhamedov X. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil (Mustaqillik davri o‘zbek matbuoti faoliyati misolida. 1991-2008 yillar), - Toshkent, 2008.